

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MAKTAB TA'LIM TIZIMIGA QIZIQTIRISHDA O'YINLARNING AHAMIYATI**Serkaboyeva N.B.***Chirchiq davlat pedagogika universiteti**«Boshlang'ich ta'lim fakulteti» talabasi*

Annotatsiya: *Maktabgacha talim sohasidagi o'quv tarbiya jarayoni bolalarning aqliy qobiliyati va layoqatlarini tarkib toptirish, rivojlantirish, ularni maktab ta'limiga tayyorlashga qaratilganidir.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy o'yinchoqlardan, pedagogik texnologiya, intellektual, didaktiv mashg'ulotlar, ijtimoiy va psixologik.*

Maktabgacha ta'lim muassalarida ishlovchi tarbiyachi-pedagoglardan yana zamonaviy o'yinchoqlardan pedagogik texnologiyalardan intellektual-psixologik o'yinlardan xabardor bo'lish, uni ta'lim tarbiya jarayoniga tatbiq etish talab etiladi. Zamonaviy o'quv-uslubiy qullannmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va intellektual-psixologik o'yinlaryaratish hamda ularni ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish lozim bo'ladi. Maktabgacha ta'lim davridagi bola hayotini, asosan o'yin tashkil etadi. Demak faoliyat turi bo'yicha o'yinlar jismoniy (harakatga doir), intellektual (aqliy), mehnat, ijtimoiy va psixologik o'yinlarga bo'linadi. Biz quyidagi vazifasi, xarakteri jihatidan o'zaro yaqin bo'lgan intellektualpsixologik o'yinlarga to'xtalmoqchimiz. Bolalarning mehnat faoliyatlarini o'zida qamragan mashg'ulotlar asosan bog'cha yoshidagi davrdan boshlanadi. Bu yoshda bolalarning mehnatlari juda sodda bo'lsa ham ularning psixik taraqqiyotlarida juda katta ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan suhbatlar, ekskursiyalar natijasida bolalarda mehnatga nisbatan ijobiy munosabat mehnat qilish ishtiyoqi tug'iladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari kattalarning mehnat faoliyatlarini o'zgalarning o'yinlarida taqlidan takrorlash bilan cheklanib qolmay balki, kattalar mehnatida bevosita qatnashish uchun harakat qila boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar mehnatining natijasi emas, balki mehnat jarayoning o'ziga qiziqish psixologik jixatdanharakterlidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tipiga tarbiyasi yoki kattalar tomonidan baho berib, borish ularda mahnatga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda ularni inoq jamoaga uyushtirish katta ahamiyatga egadir. Jamoa bo'lib mehnat qilishda tarbiyaga har bir bolaga ma'lum bir mehnatni bajarishni buyuradi. Ana shu tariqa bolalar jips-jamoa bo'lib mehnat faoliyati shug'ullanadilar. O'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalarga kuchlari yetadigan mehnat topshiriqlari berish orqali ularni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash va ularda ayrim mehnat malakalari hosil bo'lishi uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi. Chunki ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etmagan bolani keyinchalik mehnatga jalb qilish juda qiyin. Bog'chada bolalar jalb qilinadigan mehnat faoliyatining turi juda xilma-xildir. Masalan tabiat burchagidagi jonivor va o'simliklarni parvarish qilish bog'cha hovlisida ishlash, oshxonada va guruhda navbatchilik qilish, kichkintoylarni kiyintirishga yordam berish va boshqalar. Bu yosh davrida bolalarning hatti harakatlari va hulq-atvolarining motivlari ham o'zgarib, rivojlanib boradi. Katta yoshli bog'cha bolalarning hatti harakat motivlari to'la anglashgan motivlardan

iborat bo'ladi va ulaning hatti-harakatlari, hulq atvorlari asosida yotgan motivlar har tomonlama katta odamlarga o'xshashligidan iboratdir. Ular ana shunday kuchli mayl asosida taqlidiy o'yinlarni ta'limiy ya'ni didaktiv mashg'ulotlarni va mehnat mashg'ulatlarini tashkiol qilib o'tkazadilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hatti-harakatlari motivlarni rivojlanishida ahloqiy motivlarning roli nihoyatda kattadir. Bolalar o'z hatti-harakatlarini anglagani sari ahloqiy motivlarini ya'ni ijtimoiy ahloqiy qoidalarga rioya qilish motivlarini o'rni kuchayib boradi. Bolalar endi o'zlarining egaistik manfaatlari yuzasidan emas, balki ijtimoiy manfaat nuqtai nazaridan harakat qilishiga o'rgana boshlaydilar Bolalarga intellektual-psixologik o'yinlari tashkillashtirishda avvalo tarbiyachi bolalarni avvalgi olgan bilim va ko'nikma, malakalarini bilishilozim. Ana shundagina yangi olinayotgan o'yinga tarbiyachi maqsad qo'ya oladi. Asosiy maqsad o'yin qoidasi, ya'ni bolalar harakatlari va hulqlarini tashkillashdir. O'yin qoidasiga amal qilish bilan birga, irodaviy qat'iylik, tengdoshlari bilan muloqatga kirish, tushkunlikka tushmaslikxislatlarini tarbiyalsh. O'yin qoidasi o'yin harakatlarini boshqarish bilan farqlanadi. O'yin harakatlari tarbiyachining 237 10 maqsadi bilan rivojlanish va o'zgarishi mumkin. Ushbu o'yinlar talim berish vazifasi bilan o'yin shaklining birga qo'shib olib borilishi, tayyor mazmun va qoidalarning mavjudligi tarbiyachining bolalarning aqliy jihatda tarbiyalash maqsadga muvofiq bo'ladi. Intellektual-psixologik o'yinlar har tomonlama rivojlantiruvchi harakterga ega. Intellektual-psixologiko'yinlarda topshiriqlarningqiyinlik darajasi asta-sekinlik bilan ortib borishi, bolalarning olg'a borishiga va mustaqil ravishda takomillashuviga, ya'ni ta'limdan farqli o'laroq o'zining ijodi qobilyatlarini rivojlantirishga imkon beradi. Bolalar mahnaviy dunyosi, ehtiqodi butun bo'lib shakllanishi jarayonida mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar diqqatga sazovordir. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilariruhiyatida milliy mahnaviy merosni shakllantirish, boyitish ularning psixologiyasini yaxshiroq tushunib olish zarurligini taqozo etadi. Bunda ota-onalar va maktabgacha tahlim muassasalaridagi tarbiyachi xodimlardan qo'proq bolalar bilan ishlash mahsuliyatini oshiradi. Buning uchun ular bolalar ruhiy psixologiyasini mukammal o'rgangan bo'lishi va unga tahlim tarbiya jarayonida qathiy rioya qilishlari talab qilinadi. Bola o'z hayotining birinchi yilida (go'daklikda) kattalardan doimiy parvarish qilishini talab etadi. Uning ruhiy jarayonlari, asosan, sezgilar va idroklar bilan cheklangan bo'ladi. Bola yaqin kishilarini va o'z atrofidagi buyumlarni taniy boshlaydi, ularga turlicha qiziqish bilan qaraydi, turli narsalarni qo'liga olib o'ynashni yaxshi ko'radi. Bir yoshga to'lish oldidan bolada gapirishning boshlang'ich alomatlari va yurishga dastlabki intilish paydo bo'ladi. Bola sekin-asta gapirishni o'rgana boshlaydi. Bola besh - olti oylik bo'lganida chug'urlay boshlaydi. Ikkinchi yarim yillikda uning bo'g'inlab aytgan so'zlari ayrim predmetlar va harakatlar bilan bog'lana boshlaydi. Ikki yoshga qadam qo'yganida u endi alohida so'zlarni talaffo'z qila boshlaydi, ko'pincha bitta so'zning o'ziga har xil mahno beradi. Ana shu yoshda nutqning rivojlanishiga uning mustaqil harakat qilish qobiliyati tahsir ko'rsatadi. Bola hayotining uchinchi yoshi - so'z boyligining doimiy ko'payish va oddiy jummalarni ayta bilish davridir. Uch yoshli bola taxminan mingta so'zni biladi va grammatik formalardan foydalana boshlaydi, yahni so'zlarni kelishik, son va shaxslar bo'yicha o'zgartira oladi. Uch - to'rt yoshli bolalar ko'pincha «so'zlar yasash» bilan shug'ullanadilar, kattalarning gapirishiga qarab har xil so'zlar yasaydilar. Bu yoshda xotira ko'pgina buyumlarning nomi bilan boyib boradi, shu bilan birga narsalarni esda qoldirish hech qanday kuch talab qilmasdan, beixtiyor ravishda ro'y beradi. Miyaning katta yarim

sharlarida qo'zg'alish jarayonlari tormozlanishdai ustunlik qilishi sababli bola hali o'z ehtiyojlarini cheklashni o'zining xulq-atvorini boshqarishni bilmaydi. SHu sababli bolalar injiq bo'ladilar, asossiz ravishda ko'p narsalarni talab qiladilar va yig'laydilar. Ilk yoshda va yasli yoshida ruhiy jarayonlardan idrok ustun turadi. Bu yoshda bola uchun taassurotlarga ehtiyoj sezish xarakterli bo'ladi, so'ngra esa atrofdagi kishilarning harakatlari va ishlariga taqlid qilish eqtiyoji tug'iladi. Bola o'yin jarayonida ana shu o'yin tomonidan quyiladigan, lekin har doim ham oson bo'lmaydigan muayyan vazifalar va maqsadlarni amalga oshiradi, u o'yin qoidalariga bo'sunishga majbur bo'ladi. Bularning hammasi irodani tarbiyalaydi va mustahkamlaydi. Bunga kattalarning bolalarga nisbatan qo'yadigan talablari ham yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dilova N.G. (2021). O'qituvchi-o'quvchi hamkorligini vujudga keltirishning pedagogik ahamiyati. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 567-576 betlar.
2. Дилова Н.Г. (2019). Влияние технологии сотрудничества на успеваемость учащихся начальных классов. International scientific review of the problems and prospects of modern science and education.С. 63-64.
3. Usmonova Q.S . Boshlangich sinf o`quvchilarida tankidiy fikrlashni shakllantirishda pedagogic-psixologik integratsiya va uzluksizlik. М УАЛЛИМ ХЕМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИ . 2023/3 .370-375-b [tps://lib.cspi.uz/index.php?newsid=7951](https://lib.cspi.uz/index.php?newsid=7951)
4. Usmonova Q.S. Boshlangich ta'limda Filandiya ta'lim tizimini imkonoyatlari . Международный научный журнал № 4 (100), часть 2 «Научный импульс» Ноябрь, 2022./4. 899-903-b
5. Usmonova Q.S Development of Steam International Assessment Program in Primary Education. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. 30th Apr 2023. 242-244
6. Usmonova Qumrinsa Saidaliyevna. Use of Foreign Experiences and World Pedagogy in Elementary Education Teaching. // "Diversity Research: Journal of Analysis and Trends. 2023/8/.s 27-29
7. Usmonova Qumrinsa Saidaliyevna. Fundamentals And System Of Preparing Primary Class Students For Next Types Of Education |. Web of Teachers: Inderscience Research, 2023/12/8. 71-73.